**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 2a-uy
Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

**MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

2a, Navoiy Street, Tashkent, 100011
Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

**2024-yil 3-yanvar** **06-06/3-1-son**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga**

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Milliy gvardiyasining 2023-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga biriktirilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik sinflariga mas'ul etib belgilangan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari bilan o'quv yig'inini o'tkazish to'g'risida"gi 44 k/k, 36-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarida 2024-yil 5-9-yanvar kunlari, harbiy-vatanparvarlik sinflari mavjud maktablarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari uchun o'quv yig'ini o'tkazilish belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib Sizdan, o'quv yig'inga jalb etilgan ChQBT fani o'qituvchilarini joriy yilning 4-yanvar kuni soat 17:00ga qadar Milliy gvardiya qoshidagi Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyiga (Toshkent shahri, Mirobod tumani, Yangi zamon ko'chasi 10-A uy, tel: 71 291-02-32) kelishini ta'minlashingiz so'raladi.

Shuningdek, o'quv yig'inga jalb etilgan ChQBT fani o'qituvchilarining Toshkent shahriga kelib-ketish bilan bog'liq sarf-xarajatlari ularning asosiy ish joyidan to'lanishi inobatga olinsin.

ChQBT fani o'qituvchilari ro'yxati ilova qilinadi.

Ilova:____varaqda.

**Vazir o'rinbosari** **D.Kenjayev**

Ijrochi: E.Axmadaliyev
Tel: (55) 503-74-00 (4022)

Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligining 2024-yil 3-yanvardagi
06-06/3-1-son qaroriga
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga biriktirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik sinflariga mas’ul etib belgilangan chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari

**RO‘YXATI**

| T/r | Tuman(shahar) nomi | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarning nomi | CHQBT fani o‘qituvchilarining F.I.Sh |
|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | | | |
| 1. | Nukus shahri | 44-son maktab | **BAYIMBETOV** Sharapat XXX |
| 2. | Chimboy tumani | 36-son maktab | **RAZBEKOV** Kunimjoy Baymurotovich |
| 3. | Xo‘jayli tumani | 15-son maktab | **O‘RAQBOYEV** Berda O‘sirbayevich |
| 4. | To‘rtko‘l tumani | 18-son maktab | **ABDUKARIMOV** Akmal Shonazarovich |
| **Andijon viloyati** | | | |
| 5. | Andijon shahri | 35-son maktab | **MAMADALIYEV** Ilxomjon Rasuljonovich |
| 6. | Bo‘ston tumani | 48-son maktab | **NAZIROV** Muzaffar Ravshanbekovich |
| 7. | Jalaquduq tumani | 49-son maktab | **ABDURAXMONOV** Qodirjon Kimsanovich |
| 8. | Xo‘jaobod tumani | 23-son maktab | **BO‘TAYEV** Azizullo Muxammadjonovich |
| **Buxoro viloyati** | | | |
| 9. | Buxoro shahri | 35-son maktab | **SAIDOV** Sanjar G‘ulomovich |
| 10. | Kogon shahri | 9-son maktab | **MARDONOV** Shavkat Subxonovich |
| 11. | Qorovulbozor tumani | 1-son maktab | **JUMAYEV** Muxammad Azamad o‘g‘li |
| 12. | Qorako‘l tumani | 15-son maktab | **IBRAGIMOV** Jaxongir Anvar o‘g‘li |
| **Jizzax viloyati** | | | |
| 13. | Jizzax shahri | 22-son maktab | **TULYABOYEV** Farxod Xotamovich |
| 14. | Arnasoy tumani | 22-son maktab | **ASKAROV** Jasurbek Abdukahhor o‘g‘li |
| 15. | Baxmal tumani | 1-son maktab | **XOLBOYEV** Jasurbek Ne’matulla o‘g‘li |
| 16. | Zomin tumani | 60-son maktab | **ALIBEKOV** Shuhrat Roxmonkulovich |
| **Qashqadaryo viloyati** | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 17. | Qarshi shahri | 45-son maktab | **XAMDAMOV**<br>Shomurod Ismoilovich |
| 18. | Nishon tumani | 35-son maktab | **DAVRONOV**<br>Anvar Berdiniyozovich |
| 19. | G‘uzor tumani | 53-son maktab | **AMINOV**<br>Alisher Nazarovich |
| 20. | Shahrisabz tumani | 83-son maktab | **ABDUXALILOV**<br>Namozbek Shavkat o‘g‘li |
| | | **Navoiy viloyati** | |
| 21. | Navoiy shahri | 1-son maktab | **TURSUNOV**<br>Alisher Jalilovich |
| 22. | Zarafshon shahri | 1-son maktab | **ESANOV**<br>Bobomurod Kiyamovich |
| 23. | Xatirchi tumani | 65-son maktab | **PO‘LATOV**<br>Shuhrat Safarovich |
| 24. | Karmana tumani | 10-son maktab | **SOVUTOV**<br>Xusniddin Zomonovich |
| | | **Namangan viloyati** | |
| 25. | Namangan shahri | 58-son maktab | **XOJIBOYEV**<br>Malikjon Yusupjonovich |
| 26. | Uchqo‘rg‘on tumani | 2-son maktab | **DJO‘RAYEV**<br>Abdug‘affor Qaxxorovich |
| 27. | Pop tumani | 1-son maktab | **QO‘CHQOROV**<br>Farxodjon Shavkatovich |
| 28. | Chortoq tumani | 9-son maktab | **BOYXANOV**<br>Ne’matulla Yusupovich |
| | | **Samarqand viloyati** | |
| 29. | Samarqand shahri | 1-son maktab | **KULIBAYEV**<br>Xurshidbek Abdurayim o‘g‘li |
| 30. | Samarqand shahri | 43-son maktab | **MUSTAYEVA**<br>Muxabbat Egamqulovna |
| 31. | Kattaqo‘rg‘on shahri | 11-son maktab | **NAZAROV**<br>Zohid Uchqunovich |
| 32. | Oqdaryo tumani | 45-son maktab | **XUSHNAZAROV**<br>Baxtiyor Oydinovich |
| | | **Sirdaryo viloyati** | |
| 33. | Guliston shahri | 16-son maktab | **QODIRALIYEV**<br>Sardor Zakirovich |
| 34. | Sayxunobod tumani | 41-son maktab | **DJALILOV**<br>Akmal Tuychiyevich |
| 35. | Xovos tumani | 1-son maktab | **RAVSHANQULOV**<br>Xaydarqul Rabbimqulovich |
| 36. | Guliston tumani | 27-son maktab | **SHODIYEV**<br>Toxir Raxmatovich |
| | | **Surxondaryo viloyati** | |
| 37. | Termiz shahri | 17-son maktab | **ALIYEV**<br>Zokir Juraboyevich |
| 38. | Oltinsoy tumani | 2-son maktab | **PRIMKULOV**<br>Olimjon Xayitovich |
| 39. | Uzun tumani | 4-son maktab | **MUMINOV** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | Anvar Keldiyevich |
| 40. | Muzrobod tumani | 51-son maktab | **KULSOATOV**<br>Eshkobil Abdunazarovich |
| **Farg‘ona viloyati** | | | |
| 41. | Farg‘ona shahri | 6-son maktab | **AKROMOV**<br>Asilbek Raximjon o‘g‘li |
| 42. | Qo‘qon shahri | 33-son maktab | **RAMONOV**<br>Damir Muxammadjonovich |
| 43. | Oltiariq tumani | 14-son maktab | **KARIMOV**<br>Erkinjon Turdimatovich |
| 44. | Beshariq tumani | 15-son maktab | **BOLTABOYEV**<br>Mansurjon Uzoqovich |
| **Xorazm viloyati** | | | |
| 45. | Urganch shahri | 24-son maktab | **NIYAZMETOV**<br>Jamoliddin Niyazmetovich |
| 46. | Gurlan tumani | 42-son maktab | **RAJABOV**<br>Kanja Aminovich |
| 47. | Yangiariq tumani | 37-son maktab | **RUZMETOV**<br>Temur Ulug‘bekovich |
| 48. | Shovot tumani | 53-son maktab | **RO‘ZIMOV**<br>Sobirboy Saparboyevich |
| **Toshkent viloyati** | | | |
| 49. | Chirchiq shahri | 10-son maktab | **VOGVENENKO**<br>Ivan Ivanovich |
| 50. | Bekobod shahri | 9-son maktab | **ABDURAXIMOV**<br>Zokir Artikbayevich |
| 51. | Parkent tumani | 5-son maktab | **TAJIBAYEV**<br>Valijon Baxrom o‘g‘li |
| 52. | Oqqo‘rg‘on tumani | 49-son maktab | **XAYDAROV**<br>Farrux Shavkat o‘g‘li |
| **Toshkent shahri** | | | |
| 53. | Yashnobod tumani | 161-son maktab | **ZAKIROV**<br>To‘lkin Turgunovich |
| 54. | Yakkasaroy tumani | 172-son maktab | **RASULOV**<br>Muxriddin Xusniddinovich |
| 55. | Yunusobod tumani | 58-son maktab | **SHODIYEV**<br>Sobir Baxtiyor o‘g‘li |
| 56. | Olmazor tumani | 326-son maktab | **MIRAXIMOV**<br>Miradib Alimovich |

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASINING**

**QARORI**

**O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga biriktirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik sinflariga mas’ul etib belgilangan chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari bilan o‘quv yig‘inini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik sinflari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 17-apreldagi 237-son va “Ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2023-yil 8-noyabrdagi 591-son qarorlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Milliy gvardiyasi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarida 2024-yil 5-9-yanvar kunlari harbiy-vatanparvarlik sinflari mavjud maktablarning chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari (keyingi o‘rinlarda – CHQBT fani o‘qituvchilari) bilan o‘quv yig‘ini o‘tkazilsin.

2. Belgilansinki:

a) o‘quv yig‘ini Milliy gvardiya qoshidagi Toshkent shahridagi “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining malakali professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘tkaziladi;

b) CHQBT fani o‘qituvchilari bepul yotoq va oziq-ovqat bilan ta’minlanadi;

d) o‘quv yig‘ini doirasida CHQBT fani o‘qituvchilarining Toshkent shahrida joylashgan “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi, “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tarixi Davlat muzeyi” va “Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyiga” ekskursiyalari tashkil etiladi;

e) o‘quv yig‘ini yakuniga ko‘ra eng yaxshi CHQBT fani o‘qituvchilariga Milliy gvardiya tomonidan sertifikat hamda tashakkurnomalar topshiriladi.

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi uch kun muddatda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik sinflari CHQBT fani o‘qituvchilarining ro‘yxatini

shakllantirib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ta’lim jarayonini tashkil etish boshqarmasiga taqdim etsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga:

uch kun muddatda o‘quv yig‘inini o‘tkazish reja-grafigi, o‘quv-rejalari hamda madaniy tadbirlar ssenariylarini tasdiqlash;

o‘quv yig‘inga jalb etilgan CHQBT fani o‘qituvchilarini Milliy gvardiya Toshkent shahridagi “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi bazasida joylashtirish;

o‘quv yig‘ini davomida CHQBT fani o‘qituvchilari bilan barcha mashg‘ulotlar malakali professor-o‘qituvchilar va soha mutaxassislari tomonidan o‘tkazilishini ta’minlash;

o‘quv yig‘ini yakunida CHQBT fani o‘qituvchilaridan sinov imtihonlarini qabul qilish;

o‘quv yig‘iniga jalb etilgan CHQBT fani o‘qituvchilarini madaniy tadbirlarga jalb etish vazifalari yuklatilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga:

o‘quv yig‘iniga jalb etiladigan CHQBT fani o‘qituvchilarini o‘z vaqtida kelib-ketishini nazoratga olish;

CHQBT fani o‘qituvchilari bilan o‘tkaziladigan o‘quv yig‘ini davrida “MY FAIR” kompaniyasi bilan kelishilgan holda kompaniya mablag‘lag‘i hisobidan oziq-ovqat bilan ta’minlash;

o‘quv yig‘inini o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonlarni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari D. Kenjayev va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining o‘rinbosari S. Mamayusupov zimmasiga yuklansin.

**Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri** — **X. Umarova**

Toshkent shahri,
2023-yil “27” 12,
44 h/k-son

**Milliy gvardiya qo‘mondoni** — **R. Djurayev**

Toshkent shahri,
2023-yil “27” 12,
36-son